

RAVISH IBORALAR XUSUSIDA

Badikova Oysulov Gapirovna*O'zbek va xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi**University of economics and pedagogy*

Annotatsiya: *ushbu maqolada iboralarning grammatik-semantik turlaridan biri sifatida ravish iboralar xususida fikr yuritilgan. Bu hodisa iboraning nutqiy voqelanishi bilan bog'liq bo'lib, kontekstda ravishga teng ma'no ifodalashi bilan tavsiflanadi.*

Kalit so'zlar: *uslubiy bo'yoqdorlik, ot ibora, sifat ibora, fe'l iboraravish ibora, somatik iboralar, baholash funksiyasi.*

Ayrim hollarda ravishlarning qo'llanilishida uslubiy farqlar seziladi, bu esa ularning funksional-uslubiy xususiyatlari, uslubiy xoslanishi haqida fikr yuritish imkonini beradi. Ravishning uslubiy xoslanishini belgilashda ba'zan uning baholash xususiyatiga ham ega ekanligini inobatga olish kerak bo'ladi.

Ma'lumki, badiiy uslubda matn tabiatiga ko'ra hamma uslubga xos vositalardan foylaniladi. Shu nuqtai nazardan, badiiy asar tilida ravishlarning uslubiy bo'yoqdor yoki neytral ma'no ifodalovchi rang-barang turlarini kuzatish mumkin.

Xuddi shu payt Nosir ularning yonidan G'ayrat akasi bilan birga o'tib ketdi. Bular tanimagani uchun shunchaki qarab qo'yishdi.

Xo'p. Yaxshilab qulog'iga quyaman. Yaxshi o'tiring, — deb Sodiq ortiga burildi-yu, qadamini tezlatdi. Borib nimaniki eshitgan bo'lsa, Boburga oqizmay-tomizmay gapirib berdi.

Ravishlarning uslubiy bo'yoqdorligi haqida so'z borar ekan, ravish-iboralar ham mavjudligi ayon bo'ladi. Lekin o'zbek tiliga doir tadqiqotlarda bu masala bo'yicha juda kam kuzatildi. Dastlab Y.Pinxasov frazeologik iboralarni tasniflagan jadvalida grammatik-semantik jihatdan so'zga teng iboralarni ot, sifat, fe'l, ravish iboralar sifatida belgilaydi.

Anglashiladiki, bu tushuncha iboraning nutqiy voqelanishi bilan bog'liq bo'lib, kontekstda ot, sifat, fe'l, ravishga teng ma'no ifodalashi bilan tavsiflanadi.

Xullas, o'n ko'n ko'z ochib yumguncha o'tib ketdi. - Xullas, o'n ko'n tez o'tib ketdi. Yeng ichida ish bitirayotganlar qo'lga olindi – Zimdan ish bitirayotganlar qo'lga olindi.

R.Sayfullayeva va boshqalar hammuallifligidagi “Hozirgi o'zbek adabiy tili” akademik darsligida esa “Tilshunosligimizda fe'l ibora bilan qo'shma fe'l chegarasi aniq oydinlashtirilmagan” jumlasini bilan chegaralanilgan.

B.Yo'ldoshevning “Frazeologik uslubiyat asoslari” o'quv qo'llanmasida esa fe'l va ravish iboralarning ayrim xususiyatlariga to'xtalib o'tilgan. Masalan, qarshi olmoq,

qattiq turmoq, o'tib ketmoq, qasd etmoq, qasam ichmoq, o'zini bosmoq singari fe'l iboralar shular jumlasidandir

G.Jumanazarova, B.Boltayeva, D.Kulboyevalarning "Frazemalarning nutqda qo'llanilishi" nomli monografiyasida masalaga boshqa tomondan yondashilgan bo'lib, bosh, yurak, qo'l, og'iz, yuz, ko'z kabi somatik leksemalar ishtirokida barcha to'rt leksik-grammatik guruhlar (fe'l, sifat, ravish, ot)ga tegishli frazeologizmlarning xususida fikr yuritilgan. Mualliflarning qayd etishlaricha, somatik leksemalar yordamida, asosan, fe'l frazeologizmlar shakllangan. Ba'zi somatik leksemalar yordamida faqat ayrim leksik-grammatik guruhlariga tegishli frazeologizmlar shakllanganligini ham e'tiborga olish lozim. Masalan, tirnoq, teri, o'pka, bo'yin, suyak kabi somatik leksemalar vositasida faqat fe'l va ravish frazeologizmlar shakllanib, sifat va ot frazeologizmlar esa umuman shakllanmaydi. Dalillar o'zbek tilida ot frazeologizmlar kam shakllanganligini tasdiqlaydi. Bu holat nazarimizda, frazeologizmlarning nominativlik vazifasidan ko'ra tasviriylik vazifasi ustun ekanligi bilan izohlaydilar. Monografiyada quyidagi ravish iboralar keltirilgan:

qo'l leksemasi bilan:

qo'li-qo'lga tegmay, qo'lidan kelgancha, qo'l uchida,

yurak leksemasi bilan: yuragini hovuchlab, yurak yutib, yuragi yorilguday bo'lib, yuragini hovuchlagancha

ko'z leksemasi bilan bog'liq: ko'zi bejo, ko'z ilg'amas, ko'zi taka-puka, ko'z ochib ko'rgan, ko'z qorachig'idek, ko'zini baqraytirib, ko'z qorasidek, ko'z qiri bilan, ko'z o'ngida, ko'z tagidan, ko'z ochib yumguncha, ko'z qiyarda-qiymay, ko'zi to'rt bo'lib, to'rt ko'z bo'lib, ko'zi olma-kesak terib, ko'zini shamg'alat qilib, ko'z uzmay, ko'zidan olov chiqib

bosh leksemasi bilan: boshdan oyoq, boshiga qilich kelsa ham, boshidan oshib, boshi yostiqqa yetganda, boshini olib, boshi oqqan tomonga, boshi o'nta, bosh ustiga, bosh qashigani.

Lekin, bizningcha, keltirilgan misollarning ayrimlari bahstalab.

ko'zi bejo, ko'z ilg'amas, ko'z ochib ko'rgan kabi iboralar otga bog'lanib, shaxs yoki predmetyoki tushunchaning belgisini bildirishi sababli (ko'zi bejo odam, ko'z ilg'amas sarhadlar ko'z ochib ko'rgan yori kabi), ularni sifat iboralar qatoriga kiritgan ma'qul deb hisoblaymiz.

B.Yo'ldoshev ravish iboralarning baholash funksiyasi xususida fikr yuritadi va ayrim misollarni keltiradi. Olimning fikricha, ularning baholash funksiyasini ado etishi bevosita bo'lmay, balki bivosita amalga oshadi, chunki ravish iboralar shaxsni emas, uning xatti-harakatini baholaydi, xatti-harakat orqali o'sha shaxsga baho beriladi: "Iqlima o'zida yo'q shod bo'lib ularni qarshi oladi" (SH.Xolmirzayev, Qil ko'prik); "Hoy og'zingga qarab vaysa" (R.Fayziy, Hazrati inson); "Qaynotasi bo'lmish o'ziga ham qo'l uchida muomala qilardi" (S.Anorboyev, Sayli) kabilar. Ba'zi hollarda ravish iboralarning ikkilamchi baholash funksiyasi haqida gapirish mumkin, ya'ni

ravish ibora ham predmetni, ham shaxsni bir vaqtning o'zida baholashi mumkin. Masalan, kuchaytiruv ravish iboralari "uchchiga chiqqan", "besh battar", "borib turgan" kabilar xuddi shunday xususiyatlarga ega: "O'zingiz uchchiga chiqqan g'arazgo'ysiz-u, meni g'arazgo'y deb tuhmat qilasiz. Men endi bildim sizni!" (P.Qodirov, Uch ildiz).

Xulosa qilib aytish mumkinki, ravish iboralar mazmunan ravishga teng bo'lib, belgi yoki holatni uslubiy va semantik bo'yoqdorlik jihatdan ravishdan ko'ra yuqoriroq darajada ifodalaydi. Shu jihatdan ko'proq so'zlashuv va badiiy uslubga xosligi bilan xarakterlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Jumanazarova G. Boltayeva B., Kulboyeva D. Frazemalarning nutqda qo'llanilishi / G.Jumanazarova [va boshq]. - Toshkent: Turon zamin ziyo. 2017.
- 2.Yo'ldoshev B. Frazelogik uslubiyat asoslari: o'quv qo'llanma. Samarqand, 1998.
- 3.Pinxasov Y. Hozirgi o'zbek adabiy tili: leksikologiya va frazeologiya. T.: O'qituvchi, 1969. –B.56
- 4.Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006. – B.181